



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 8-iyul

264-9-0-Q/25

Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari jamoat transporti tizimida yangi, qo‘shimcha va rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy qilish hamda yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 419-I-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomi”ga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining jamoat transporti tariflarini qayta ko‘rib chiqish va oshirish bo‘yicha takliflari (05/53-40/180-son, 02.02.2024-yil) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarida (03/I-2592-son, 19.02.2024-yil) belgilangan vazifalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat Transport boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari jamoat transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun qulay tariflarni joriy etish hamda elektron to‘lovlarni ommalashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan loyihasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlarining jamoat transporti (avtobus, mikroavtobus) yo‘nalishlarida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira to‘lovlari yig‘ilishida bosqichma-bosqich inson omilini kamaytirish, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish va avtomatlashtirilgan (elektron) to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining quyidagi cheklangan tariflari belgilansin:

a) Shahar yo'lovchi transportlari (avtobus, mikroavtobus)da naqd pulda to'lov amalga oshirilganda bir nafar yo'lovchi uchun bir martalik yo'lkira haqi – **3 000 (uch ming) so'm (QQS bilan)**;

b) Shahar yo'lovchi transportlari (avtobus, mikroavtobus)da naqd pulsiz to'lov tizimi jozibadorligini oshirish, mazkur tizimdan foydalanishga yo'lovchilarni keng jalb qilish, sohadagi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish maqsadida shahar jamoat transportlari (avtobus, mikroavtobus)da elektron shaklda (yagona transport kartalari (ATTO), bank kartalari va boshqa elektron to'lov turlari) orqali to'lovlar amalga oshirilganda bir nafar yo'lovchi uchun bir martalik rag'batlantiruvchi yo'lkira haqi – **2 000 (ikki ming) so'm (QQS bilan)**;

d) Shahar yo'lovchi transporti (avtobuslar)da hajmi 60 sm x 40 sm x 20 santimetrdan 100 sm x 50 sm x 30 santimetrgacha bo'lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetrgacha bo'lgan buyumlarni hamda o'lchamidan qat'iy nazar, og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lgan bagajni olib yurish uchun yo'lkira haqi **3 000 (uch ming) so'm (QQS bilan)** etib belgilansin.

3. Belgilansinki:

Shahar yo'lovchi transporti (avtobuslar)da yo'lovchilar tomonidan hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm va og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lmagan qo'l yuki hamda musiqa asbobini, 150 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni, shuningdek qafasga solingan mayda hayvonlar va parrandalar, aravacha (bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqalarning aravachalari)ni, mayda bog'dorchilik inventarlari, bolalar chanalarini o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega;

shahar yo'nalishlaridagi avtobuslarda yo'lovchilarning 7-yoshgacha bo'lgan bolalari uchun haq undirilmaydi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qaroriga asosan:

Shahar yo'lovchi transporti (avtobuslar)da qatnovlar soniga bog'liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif – **2 000 (ikki ming)so'm (QQS bilan)**.

yo'lovchilarning shahar yo'lovchilar transporti (avtobus va mikroavtobuslar)dan foydalanishlarida qatnovlar soniga bog'liq holda belgilangan tarif rejalarini 1-ilovaga;

elektron to'lov tizimlaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo'nalishli yo'lovchi transporti (avtobuslar)dan boshqasiga o'tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tarif rejalarini 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo'nalishlarida bir yo'lovchi kilometr uchun tavsiyaviy tarif:

avtobuslarda **280 (ikki yuz sakson) so'm (QQS bilan)**;

yo'nalishli taksilarda **380 (uch yuz sakson) so'm (QQS bilan)** tavsiyaviy narx etib belgilansin;

6. Sirdaryo viloyati hokimining 2023-yil 4-dekabrdagi 376-9-0-Q/23-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Transport boshqarmasi (A.Ashurov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, o'n kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilarni tashuvchi tegishli

tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan oferta (brutto) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

8. Sirdaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va <https://sirdaryo.uz> veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Kushakov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi
v.b



E.Turdimov

Sirdaryo viloyati hokimining
2025-yil 8-iyuldagi
264-9-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan
TARIF REJALARI (QQS bilan)**

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni	Tarif rejalarining narxi (so‘m)
1.	“AV” avtobus – aholi uchun*	1 kunlik	6	9 000
		5 kunlik	22	34 000
		7 kunlik	28	43 000
		10 kunlik	44	68 000
		15 kunlik	66	102 000
		20 kunlik	88	136 000
		30 kunlik	130	200 000
		90 kunlik	390	569 000
		180 kunlik	780	1 014 000
		365 kunlik	1 560	1 872 000
3.	“N” avtobus – pensionerlar va nogironlar uchun**	1 kunlik	6	4 500
		5 kunlik	22	17 000
		7 kunlik	28	21 500
		10 kunlik	44	34 000
		15 kunlik	66	51 000
		20 kunlik	88	68 000
		30 kunlik	130	100 000
		90 kunlik	390	285 000
		180 kunlik	780	507 000
		365 kunlik	1 560	936 000
4.	“T” avtobus – talabalar uchun**	1 kunlik	6	4 500
		5 kunlik	22	17 000
		7 kunlik	28	21 500
		10 kunlik	44	34 000
		15 kunlik	66	51 000
		20 kunlik	88	68 000
		30 kunlik	130	100 000
		90 kunlik	390	285 000

		180 kunlik	780	507 000
		365 kunlik	1 560	936 000
5.	“O” avtobus – o‘quvchilar uchun**	1 kunlik	6	4 500
		5 kunlik	22	17 000
		7 kunlik	28	21 500
		10 kunlik	44	34 000
		15 kunlik	66	51 000
		20 kunlik	88	68 000
		30 kunlik	130	100 000
		90 kunlik	390	285 000
		180 kunlik	780	507 000
		365 kunlik	1 560	936 000
6.	“B” bepul – O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq transportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun	0	0	0

Izoh:

*) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: $X \cdot 2000 \cdot 23\%$;

***) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: $X \cdot 2000 \cdot 23\% \cdot 50\%$,

bunda:

X – transportda qatnovlar soni;

2000 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif.

23 % – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 643-sonli qarorining ilovasiga muvofiq.

$2000 \cdot$ Qatnovlar soni – 23% (to‘liq qiymatdan chegirish miqdori);

50 % – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2012-yil 17-sentabrdagi 273-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 643-sonli qarorining ilovasiga muvofiq.

2000* Qatnovlar soni – 50% (to‘liq qiymatdan chegirish miqdori).

Sirdaryo viloyati hokimining
2025-yil 8-iyuldagi
264-9-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga asosan yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti – avtobusdan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari (ATTO) orqali amalga oshirilganda almashish TARIF REJALARINING NARXLARI (QQS bilan)*

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashish turlari	Tarif rejalarining narxi (so‘m)
1.	1 soatlik A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	2 000
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1 000
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0

Izoh:

**Mazkur tarif rejalarining narxi faqat bir transport turi uchun va bir soat davomida yagona transport kartalari (ATTO) orqali to‘lov amalga oshirilganda qo‘llaniladi.*